

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.M.No'monzoda</b>	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili .....	331
<b>F.A.Hamdamova</b>	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni .....	334
<b>M.A.Nishonov</b>	
Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asoosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi .....	338
<b>A.A.Meliqo'ziyev</b>	
Bo'lajak pedagoglarda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta'limiy asoslari .....	343
<b>S.S.Asatov</b>	
Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyati .....	346
<b>D.Q.Majidova</b>	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta'limoti.....	351
<b>S.R.Qutlimuratov</b>	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo'lgan munosabati .....	355
<b>N.U.Jamalova</b>	
Globallashuv jarayonida ta'limning o'zgarishi va gumanitar fanlarning o'rni.....	360
<b>M.A.Matmusayeva</b>	
O'yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi .....	365
<b>B.B.Xaitbayeva</b>	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish .....	368
<b>F.A.Ibroximov</b>	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati .....	374
<b>R.B.Tursunov</b>	
O'quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish .....	379
<b>D.B.Toshaliyev</b>	
Oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	383
<b>U.Xolova</b>	
Falsafafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma'rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida ) .....	386
<b>S.E.Baymuradova</b>	
Geografiya fanini masofaviy o'qitishda mobil ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari.....	390
<b>B.M.Qandov</b>	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni.....	394
<b>A.M.To'rayev</b>	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo'lg'usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishidagi muhim omil sifatida .....	400
<b>A.A.Meliqo'ziyev</b>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....	404
<b>J.Sh.Mamayusupov</b>	
Falsafa fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari.....	408
<b>Y.S.Sidiqova</b>	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida .....	413
<b>B.X.Karimov</b>	
Ilk uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivojidagi o'rni .....	418
<b>Y.M.Namozova</b>	
Ta'lim va insonparvarlikka asoslangan "Taraqqiyot strategiyasi" jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida .....	423



УО'К: 141.7

**FALSAFA FANLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH  
MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО  
МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ФИЛОСОФИИ**

**PEDAGOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING A CULTURE OF INDEPENDENT THINKING IN  
FUTURE TEACHERS BASED ON PHILOSOPHICAL DISCIPLINES**

**Mamayusupov Jamshid Shoyunus o'g'li**   
Farg'onan politexnika instituti tadqiqotchisi

*Annotatsiya*

*Maqolada falsafa ta'lmini interafaol o'qitish asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishda muammoli ta'limni takshil etish va muammoli vaziyatlar tahliliga qaratilgan ta'lum texnologiyalari va bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishda amalda keng qo'llanib kelinayotgan "Blits-so'rov", "SWOT-tahlil", "Munozara", "FSMU", "Intellektual duel", "Fikrlar bahsi" kabi interfaol metodlardan; "Fikriy hujum", "Bumerang", "Zinama-zina" kabi interfaol pedagogik jihatlari tahlil qilingan.*

*Аннотация*

В статье на основе интерактивного преподавания философского образования в развитии культуры самостоятельного мышления будущих учителей представлено проблемное обучение, а на практике широко используются образовательные технологии, направленные на анализ проблемных ситуаций. развитие культуры самостоятельного мышления будущих учителей. Интерактивы типа «Блиц-опрос», «СВОТ-анализ», «Дискуссия», «ФГМУ», «Интеллектуальная дуэль», «Дискуссия мнений». из методов; Проанализированы такие интерактивные педагогические аспекты, как «Мысленная атака», «Бумеранг», «Зинама-зина».

*Abstract*

*The article analyzes the interactive pedagogical aspects of educational technologies aimed at the development of a culture of independent thinking of future teachers based on interactive teaching of philosophy, problem-based learning and the analysis of problem situations, and interactive methods such as "Blitz-survey", "SWOT-analysis", "Discussion", "FSMU", "Intellectual duel", "Dispute of ideas", which are widely used in practice in developing a culture of independent thinking of future teachers; "Intellectual attack", "Boomerang", "Step-by-step".*

**Kalit so'zlar:** Falsafa ta'lim, "Blits-so'rov", "SWOT-tahlil", "Munozara", "FSMU", "Intellektual duel", "Fikrlar bahsi", "Fikriy hujum", "Bumerang", "Zinama-zina", pedagogik, texnologik, model, didaktik, ijtimoiy ahamiyat, tarbiyaviy xususiyat.

**Ключевые слова:** Философское образование, «Блиц-опрос», «СВОТ-анализ», «Дискуссия», «ФГМУ», «Интеллектуальная дуэль», «Обсуждение идей», «Мыслительная атака», «Бумеранг», «Зинама-зина», педагогические, технологические, модель, дидактика, социальная значимость, воспитательная функция.

**Key words:** Philosophy of education, "Blitz-survey", "SWOT-analysis", "Discussion", "FSMU", "Intellectual duel", "Debate of ideas", "Intellectual attack", "Boomerang", "Step-by-step", pedagogical, technological, model, didactic, social significance, educational feature.

**KIRISH**

Falsafa ta'lmini interafaol o'qitish asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishda muammoli ta'limni takshil etish va muammoli vaziyatlar tahliliga qaratilgan ta'lum texnologiyalari samarali hisoblanadi. Muammoli ta'limning maqsadi – talabalar bilan ishlash jarayonida ta'lum-tarbiya masalalari, yuzaga kelgan muammo va savollariga javob qidirish, ularni hal etish yo'llari bilan yangi bilimlarni o'zlashtirishni, talabalar o'quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etish bo'yicha professor-o'qituvchilar ularda qiziqish uyg'ota olishidan iborat. [1]

Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishda amalda keng qo'llanib kelinayotgan "Blits-so'rov", "SWOT-tahlil", "Munozara", "FSMU", "Intellektual duel", "Fikrlar bahsi"

## ILMIY AXBOROT

kabi interfaol metodlardan; “Fikriy hujum”, “Bumerang”, “Zinama-zina” kabi interfaol strategiyalardan; “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster” kabi grafik tashkilotchilar (organayzerlar) – umumpedagogik interfaol ta’lim metodlaridan o’z o’rnida mahorat bilan foydalanishi ijobjiy samara beradi. Misol uchun, “SWOT-tahlil”, “Tushunchalar tahlili” metodi talabani mustaqil fikr yuritishga undashi, tafakkur yuritishga ehtiyoj va motivatsiya uyg’ota olishi bilan xarakterlanadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Turli fanlar doirasida, xususan, falsafa, psixologiya va pedagogika fanlari doirasida analitik tafakkur ko’plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan va bugungi kunda ham bu jarayon davob etmoqda. Jumladan, D.Sharipova, O.Musurmonova, M.Quronov, U.Mahkamov, R.Safarova, Sh.Mardonov, D.Ro’ziyeva, N.Egamberdiyeva, Sh.Shodmonova, Sh.Sharipov, O.Jamoldinova, V.Slastenin, I.Isayev, Y.Shiyanov Z.T.Soliyevalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida analitik tafakkurning falsafiy, psixologik va pedagogik jihatlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish omillari tadqiq etilgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Bo’lajak o’qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishda amalda keng qo’llanib kelinayotgan “Blits-so’rov”, “SWOT-tahlil”, “Munozara”, “FSMU”, “Intellektual duel”, “Fikrlar bahsi” kabi interfaol metodlardan; “Fikriy hujum”, “Bumerang”, “Zinama-zina” kabi interfaol strategiyalardan; “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster” kabi grafik tashkilotchilar (organayzerlar) – umumpedagogik interfaol ta’lim metodlaridan o’z o’rnida mahorat bilan foydalanishi ijobjiy samara beradi. Misol uchun, “SWOT-tahlil”, “Tushunchalar tahlili” metodi talabani mustaqil fikr yuritishga undashi, tafakkur yuritishga ehtiyoj va motivatsiya uyg’ota olishi bilan xarakterlanadi.

**1-jadval****Falsafa ta’limini interfaol o’qitish asosida bo’lajak o’qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish texnologiyasining didaktik ta’minoti**

Bosqichlari	Mazmuni	Metod va usullari
Motivatsion	Bo’lajak o’qituvchilardaa ilmiy bilish bilan aloqador axborotni tahlil etishga qiziqish va ehtiyojni rivojlantirish	Aqliy hujum, debat, klaster, munozara, axborotni so’zsiz uzatish, «Kontestli ta’lim...» texnologiyasi
Kognitiv	Bo’lajak o’qituvchilar analitik, prognostik, texnologik malakalar majmuuni tarkib toptirish	Keys stadi, insert, muqobil imkoniyatlar tanlovi, qarorlar shajarasi
Faoliyatga doir	Bo’lajak o’qituvchilarni mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish uchun zarur bo’lgan bilimlar tizimini loyihalash	O’z o’rningni top, baliq skeleti, Venn diagrammasi, konseptual jadval, qarama-qarshi munosabat.

Falsafa ta’limini interfaol o’qitish asosida bo’lajak o’qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishing motivatsion bosqichining maqsadi falsafiy- ilmiy munozaralarni tahlil etishga qiziqish va ehtiyojni rivojlantirishdan iboratdir.

## 2-jadval

**Mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantiruvchi mustaqil ishlarni tashkil etish  
texnologiyasining axboriy-didaktik ta'minoti**

Texnologik bosqichlar	Shakllar	Ta'lim strategiyalari	Vositalar
Motivatsion	Individual, juftliklarda ishslash, guruhli, jamoaviy, trening, dars va darsdan tashqari ish shakllari	Erkin yozish, besh minutlik esse, asoslangan esse, o'n minutlik esse	Darslik, elektron o'quv moduli, slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar, axborot texnologiyalari
Kognitiv-operatsion		Tushunchalar tahlili, ijodiy test	
Faoliyatga doir		Muammoli vaziyat, muammoli savol, muammoli masala, keys-stadi, o'quv loyihasi	

Bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil fikrlashni, tanqidiy tafakkurni va mantiqiy fikrlash madaniyatini rivojlantirishda vaziyatlil tahlil (keys-stadi) strategiyasidan foydalinish maqsadga muvofiqdir. Keys-stadi inglizcha sase – aniq vaziyat, stady – ta'lim so'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga molik natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. Mazkur strategiya muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. [3]

## 3-jadval

**Keys topshiriqlarini bajarishda qo'llaniladigan tahlil (analiz) turlari**

No	Turlari	Tavsifi	Namoyon bo'lish shakli
1.	Muammoli tahlil	Muammolarni ajratish, muammolar ko'lami va ularning tasnifini shakllantirish	Vaziyatning muammoli jihatlarini tahlil qilish; vaziyatning muammoli shartlarini tahlil qilish; vaziyatning muammoli oqibatlarini tahlil qilish
2.	Tizimli tahlil	Obektni tizimli yondashuv pozitsiyasidan o'z strukturasi va funksiyalariga ega tizim sifatida ko'rib chiqish	Deskriptiv analiz: mavjud tuzilma asosida funksiyalarni shakllantirish; konstruktiv analiz: mavjud funksiyalar asosida tuzilma shakllantiriladi
3.	Prakseolo gik tahlil	Faoliyatli jarayonlarni ularni optimallashtirish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish	Faoliyatni optimizatsiyalash usullarini analiz qilish; faoliyatni modellashtirish va algoritmlashtirish
4.	Prognostik tahlil	Vaziyatning keyingi rivojiga nisbatan farazlar keltirish	Normativ prognostik analiz; kontseptual-prognostik analiz

Keys-stadining asosiy mohiyati, afzalliklari quydagilardan iborat: o'quv mashg'uloti keys-texnologiyasi asosida o'tkaziladi; talabalar faolligi oshiriladi va ularni mustaqil ishslashga, fikrlashga undaydi; aniq ma'lumotlar asosida qurilgan va ana shu vaziyatning mavjudligi talabalarda uni yechishga qiziqish uyg'otadi.

Berilgan keysni yechish natijasida quyidagi o'quv natijalariga erishish mumkin: o'rganilgan mavzu bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlash; muammoni alohida va guruhlararo tahlil qilishga hamda asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilishga o'rganish; mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish; o'quv ma'lumotlarini o'rganish darajasini tekshirish.

Amaliy vaziyatni tahlil qilish uchun metodik ko'rsatma (4-jadvalga qarang):

## 4-jadval

Tahlil bosqichlari	Tavsiya va maslahatlar
1.Keys bilan tanishish	1. Keysni o'qish jarayonida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang. 2. Berilgan vaziyat bilan tanishing. Vaziyatga ta'rif berishga

## ILMIY AXBOROT

	harakat qiling. 3. Vaziyatni tahlili uchun axborot manbalari bilan ta'minlanganlikni aniqlang.
2.Vaziyatning tashhisi va tahlili	1.Vaziyatni tahlil qilish jarayonida muammo qanday darajada yechilishini belgilang. Uni yechish mumkinmi?, Qanday natijaga erishish mumkin? 2.Muammoni yechish jarayonida bo'ladigan yoki bo'lishi mumkin bo'lgan qiyin holatlarni ko'rsating
3.Muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha tahlil variantlarini tanlash va baho berish	1.Vaziyatning yechimini hal qiling. Berilgan xulosalarni salbiy va ijobjiy tomonlarini ko'rsating va baholang. Eng yaxshi variantni tanlang

Ijtimoiy-gumanitar fanlar muammolarini o'rganishda va tahlil qilishda, bo'lajak kadrlarda mustaqil fikrlesh madaniyatini o'stirishda SWOT tahlil metodini qo'llash yaxshi natija beradi. Ushbu metodning lug'aviy ma'nosi quyidagicha:

- Strong – kuchli,
- Weakness – kuchsiz,
- Opportunities – imkoniyatlar,
- Threats – xavflar[4]

Ya'ni muayyan obyekt (vaziyat, tadqiqotga nisbatan ilmiy yangilik)ning kuchli tomonlari – ayni vaqtda mavjud ustunliklari; shu kuchli tomonlarni inkor etuvchi kuchsiz jihatlari; yangilikni amalga oshirgandan keyin paydo bo'ladigan imkoniyatlar va shu imkoniyatlar ta'sirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar prognoz qilinadi.

SWOT - tahlil o'rganilayotgan ob'ektning eng dolzarb muammolarini topish, uning oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan taxdid, xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida olib boriladi. Bundan tashqari kuchli tomonlarni mustahkamlash, kuchsiz jihatlarni kamaytirish, imkoniyatlardan samarali foydalanish va ularni kengaytirish va tahdidlarga qarshi choralarini ko'rishga uchun tegishli takliflar ishlab chiqishda qo'l keladi.

Metodni qo'llashning muhim shartlari:

1. Obyektning muhim elementlarini ajratib olish SWOT-tahlilda ko'rildigani asosiy elementlar aniqlanilib, mazkur elementlarning har biri uchun alohida baholash me'zonlari ishlab chiqiladi.
2. SWOT-tahlil uchun tanlab olingan elementlarni guruhlarga ajratish: (Masalan...).
3. Har bir elementni alohida SWOT-tahlil qilish
4. O'rganilayotgan obyektni to'laligicha SWOT-tahlil qilish

5. Aniqlangan kuchli jihatlar bilan imkoniyatlar orasidagi bog'liqlikni topish yoki ularning o'zaro uyg'unlashuvini ta'minlash, kuchsiz jixatlar (muammolar) bilan xavf-xatarlarning o'zaro bog'liq jixatlarini topish va tegishli xulosa berish[2]: kuchli va kuchsiz jihatlarni, imkoniyat va xavflarni obyektiv (xolis) umumqabul qilingan mezonlar asosida baholash; baholash uchun yig'ilgan ma'lumotlarni obyektiv va realligiga ishonch xosil qilish; kuchli yoki kuchsiz jixatlarni aniqlashda, imkoniyatlar va xavf-xatarlar darajasini belgilashda boshqa tegishli tahlil metodlaridan foydalanilishi mumkin.

Falsafa ta'limida ushbu metodni qo'llash uchun tegishli mavzularning asosiy mazmunidan tezislар ajratib olish maqsadga muvofiq. Masalan, mustaqil fikrlesh madaniyatining asosi – erkinlik; mustaqil fikrleshni rivojlantirishda kreativlik, tanqidiylik va mantiqiylik – zaruriy shartdir; mustaqil fikrlesh liboral va bag'rikeng ta'lim muhitida rivojlanadi va hokazo.

O'quv jarayonida SWOT-tahlilni qo'llash analitik tafakkurni rivojlantirish yaxshi samara beradi va amaliy mashg'ulotlar uchun tavsiya etiladi. Biz ushbu vazifani "Falsafa" fani doirasida falsafiy-mantiqiy mavzunining asosiy g'oyalarini mustahkamlashga tatbiq etib ko'ramiz. Falsafa darsida seminar mashg'ulotlarida 9 nafar talabani tanlab olamiz va SWOT-tahlilni qo'llash uchun talabalarni 3 tadan 3 ta guruhga bo'lib olamiz. Va namuna uchun yuqoridaq 3 ta tezisni tanlov asosida kichik guruhlarga taqdim etamiz. Talabalar SWOT-tahlil jadvali asosida o'zlarining

xulosalari (tezislari)ni himoya qilishlari lozim. Belgilangan vaqt davomida talabalar jamoaviy javoblarini tayyorlaydi. [5]

O'quv mashg'ulotida mavzular bo'yicha tezislarni talabalarning tashabbuslari bilan aniqlash ijobjiy ahamiyatga ega. Bu tashabbus talabalarning mavzuni mustaqil o'zlashtirganliklarini bildirib, masalaga tanqidiy yondashish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

### XULOSA

Falsafa ta'lmini interafaol o'qitish asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishda yuqorida nomlari keltirilgan o'qitish usullari 1) talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish; 2) ularda bilish va kasbiy faoliyatga qiziqishni shakllantirish maqsadlarida foydalanilishi ochib berildi. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashga doir ta'lim standartlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili falsafa ta'limi asosida bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni maqbullahtirish lozimligini ko'rsatdi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahliddinov R.Sh. O'zbekistonda ta'limini boshqarish: muammolar, izlanishlar, yechimlar // Ta'lim taraqqiyoti. – Toshkent, 2000. – № 3. - B. 5-6.
2. Bibler V.S. Kultura: Dialog kultur (Орыт орпедељенија) // Voprosy filosofii. – Moskva, 1989. – № 6. – S 34-35.
3. Karimova B.M. Niшонона 3.T. Mustaqil ijodiy fikrлаsh ва шахснинг ҳиссий, иродавий ва интеллектуал хислатлари орасидаги боғланиш // Xalқ таълими. – Тошкент, 2001. – № 3. – Б. 64-69.
4. Козырева О.А. Компетентность современного учителя: современная проблема определения понятия Стандарты и мониторинг в образовании. –2004. – № 2. – С.48-51.
5. Лукъянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя // Педагогика. – Москва, 2001. – №– С. 56-61